

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING SHAKLLANISH VA O'RGANILISH MASALALARI

Rokhila Bafoeva

Osiyo xalqaro universiteti assistentirokhillabafaeva050796@gmail.com

r.v.bafoyeva@oxu.uz

Xalq og'zaki ijodining nodir namunasi bo'lgan maqollarning paydo bo'lish tarixi, o'rganilish tarixi, bu vositalarning yozuvchilar asarlarida qo'llanilishi ham uzoq davrlarga borib taqaladi. Garchi dastlabki maqollar qachon va qanday paydo bo'lganligi noma'lum bo'lsada, ammo biz ularni xalqlar kabi qadimiydir deya olamiz. Xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida maqollar ko'plab xalqlar, xususan, O'rta Osiyo xalqlari rivojlanishida ahamiyati nihoyatda katta. Ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, maqollar doimo yaratilib borilgan va yillar davomida sayqallangan, shu sababli katta davrni qamraydi va keng fikrlarni ifodalaydi. Maqollar asrlar davomida xalq va insoniyat orasida sayqallanib, ixchamlashib, ommalashib kelgan va chuqur mazmunli qofiyali va she'riy shaklga kelgan. Maqollar shunday vositalarki ular orqali bir nechta so'z vositasida juda katta masalalarga ulosa berish mumkin. Maqollarda nazmiy vositalar kabi mazmun va shaklning uyg'unligini, ko'pincha qofiyadoshlik, ba'zida ko'p ma'nolilik, majoziy va ko'chma ma'nolarga boyligi kabi xususiyatlarni ko'ra olamiz.

Maqollarning ahamiyati nafaqat jamiyat hayotida va yana adabiyotda ham oshib, turli asarlarda keng qo'llaniladigan bo'ldi. Masalan, XI asrning buyuk olimi M. Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'ati turk" asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan juda keng foydalangan. Bu asarni biz nafaqat o'sha davr tilidagi so'zlarni izohlovchi lug'ati va yana shu vaqtda butun O'rta Osiyo doirasida, ya'ni, Yuqori Chindan tortib Movorounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoroga qadar cho'zilgan keng va katta hududda yashagan urug', qabila, xalqlar, ularning tillari, o'sha davr xalq og'zaki ijodiy maqollari to'g'risida ham ma'lumot beruvchi noyob filologik asardir deya olamiz. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu asar xalq maqollarini yana xalq og'zaki ijodining nodir durdonalarini o'z ichiga jamlagan yuksak ahamiyatga ega bo'lgan asardir. Bu asar haqida yozuvchining o'zi M. Koshg'ariyning shunday yozadi: "Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, sahlar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim"⁵.

Ingliz xalq maqollari ham xuddi o'zbek xalq maqollari kabi juda ham mukammal va xalq og'zaki ijodining eng sara namunalaridan biri sifatida uzoq davrlar mobaynida turli xil kundalik va hayotiy masalalar asosida shakllanib kelmoqda. Ingliz xalq maqollarini ingliz tilshunosligida o'rganilish tarixi juda muhim va keng qamrovli mavzu hisoblanadi. Bu soha bo'yicha turli xil izlanish va tadqiqotlar olib brogan

⁵ Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk" 1Tom. -Toshkent: 1960-yil, 44-45-bet

birqancha olimlar mavjud. Odatda tili, madaniyati va urf-odatlarini bir-biriga yaqin yoki bir xil bo'lgan millatlarning maqollari ham bir-biriga yaqin yoki o'xshash bo'ladi. Ingliz va G'arbiy Yevropa davlatlarining xalq o'g'zaki ijodida va aynan maqollarning tarqalishida, maqollar kitobi deb atalmish muqaddas kitob "Bible" ya'ni Biblyaning o'rni katta. Xristian dinining bu muqaddas kitobi ingliz xalq maqollarini o'zida jamlagan bo'lib, aynan qadimgi davrdagi ajdodlar tomonidan aytilgan maqollar va ularning turlicha shakllanish masalalari bayon etilgan. Ko'plab ingliz olimlari tomonidan maqolga turlicha ha izohlar keltirilgan. Mashhur ingliz filklorshunosi, professor Mayder maqolni quyidagicha izohlaydi: "Proverbs are used in a wide range of situations and no limits to the use of the proverb. They can be used to: "strengthen our arguments, express certain generalizations, influence or manipulate other people, rationalize our own shortcomings, question certain behavioral patterns, satirize social ills, poke fun at ridiculous situations"⁶. Ya'ni: "Maqollar juda keng ko'lamda qo'llanilib ularni qo'llashda chegara yuq. Maqollar bizning dalillarimizni mustahkamlash, umumiy va aniq fikrlarimizni ifodalash, boshqa insonlarni boshqarish yoki ularga ta'sir o'tqazish, jamiyatdagi illatlarni ifodalash".

Davrlar va asrlar osha maqollarning yangi namunalari yaratilib, eski maqollarning esa kundalik hayotdagi, jonli muloqatdagi ma'no doirasi kengayib yoki torayib brogan. Shuningdek, davr rivojlangani sari ba'zi maqollar hayotiy masalalarga to'g'ri kelmay qolganligi sababli, maqollarning muayyan qismi unutilib ketgan. Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarsi ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga va maqsadiga qarab maqollarning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir jumlagi alohida e'tibor berish kerak. Maqollar tarkibida shunday so'zlar borki, bu so'zlar tarixan butunlay boshqa ma'nolarni anglatgan va hozirgi kunda boshqa ma'noni anglatadi. Bundan tashqari har bir millatning o'z diniy e'tiqodi, yashash uslubi, madaniyati, urf-odati, an'analari, dunyoqarashi borki, ular folklorshunoslikda o'rganiladigan maqollarda qisman o'z aksini topadi.⁷ Maqollar asrlar davomida nafaqat tilshunoslikda, balki folklorshunoslikda o'rganilayotgan eng muhim mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada olimlar asrlar davomida maqollar yuzasidan o'z mamlakatlarning olis hududlariga ekspeditsiyalar uyushtirib kelishmoqda va xalq tilidan yildan yilga turli mavzularga doir bo'lgan takrorlanmas maqollar yaratilmoqda va jamlanib kelinmoqda.

Masalan, bir necha asrlar oldin ijod qilgan mashhur adabiyot vakili Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq o'zbek xalq maqollari bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o'zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni

⁶ J.Raymond "Naprijonnost v poslovitsah" Zapadniy folklor. 1956

⁷ Амосова Н. Н. «Основы английской фразеологии». - Л.: ЛГУ, 1963.

she'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq hodisadir.⁸ XX asrga kelib esa, xalq maqollarini ilmiy masala sifatida o'rganish keng rivojlandi. Xususan, O'zbek xalq maqollarini to'plash va nashr qilishda Missioner yozuvchi N.G.Ostroumov O'zbek xalq maqollarini to'plash va nashr qilishda o'zining katta hissasini qo'shgan. Sh.Shorahmedov, X.Sharafiddinov va X.Abdurahmonov va yana bir necha o'zbek olimlari maqollarning til xususiyatini yorituvchi tadqiqotlar olib borishgan. B.Sarimsoqov, K.Imomov, va X.Abdurahmonovlar esa maqollarning yangicha nashrlarini o'rganish va tahlil qilish borasida jonbozlik ko'rsatishgan. Mashhur yozuvchi va olim X. Sharafiddinova o'zbek xalq maqollarining tuzilishidagi, strukturasi, qofiya, uning turlari, xususiyatlari va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e'tibor qaratgan. Xalq tajribasi asnosida paydo bo'lgan maqollar har doim inson hayoti uchun muhim hisoblangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk" 1Tom. -Toshkent: 1960-yil, 44-45-bet
- 2.J.Raymond "Naprijonnost v poslovitsah" Zapadniy folklor. 1956
- 3.Амосова Н. Н. «Основы английской фразеологии». - Л.: ЛГУ, 1963.
- 4.Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиялогия. - Москва, 1988г (256-260 bet)

⁴ Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиялогия. - Москва, 1988г (256-260 bet)